



## MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 05-Yanvar 2022

Ma'qullandi: 10- Yanvar 2022

Chop etildi: 15- Yanvar 2022

## KALIT SO'ZLAR

Logistika, biznes boshqaruvi, transport infratuzilmalari, sog'lom raqobat, iqtisodiyot, yo'l transport, modernizatsiya, raqamli rivojlanish, innovatsion logistika.

## I. KIRISH

Bugungi kunda global davrda logistika sohasiga bo'lgan e'tibor tobora ortib bormoqda. Samarador logistika tizimi ichki bozorda tayyor mahsulot va xom-ashyo harakatini optimallashtirish orqali tovar va xizmatlarning xaridorlar uchun qulay sharoit va arzon narxlarda yetkazib berilishini ta'minlaydi, bozordagi raqobatni rag'batlantiradi. Tashqi bozorda esa mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshiradi va jahon iqtisodiyotiga integratsiya jarayonini tezlashtiradi. Rivojlanib borayotgan mamlakatimiz uchun samarador logistika tizimini tashkil qilish juda ham muhim. Logistika iqtisodiyotning ko'rsatgichi muhim

## MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA LOGISTIKADAN FOYDALANISH YO'LLARI

Berkinov Odilbek<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti. Magistratura bo'limi, MML-10 guruhi, 2- kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5865309>

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mamlakatimizda logistika va transport infratuzilmalarini rivojlantirish yo'nalishlarini yangicha ma'lumotlar bilan tanishtirib chiqilgan. Globat ta'minot bo'ylab logistika sohasining vujudga kelishi, bugungi kundagi ahamiyati iqtisodiyotga ta'siri muallif tomonidan yoritib o'tilgan. Logistikani, transport infratuzilmalarini rivojlantirish va xalqaro aloqalarni mustahkamlash uchun bir qator ko'rsatmalar berilgan.

omillarda sanaladi. Statistika ma'lumotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, Respublikamiz eksportining katta qismini qishloq xo'jaligi mahsulotlari va xom-ashyo tashkil etadi. Ular ishlab chiqarish mahsulotlari (manufactured goods) qaraganda transport birligiga nisbatan (masalan bir tonna paxta va bir tonna tayyor yuqori sifatli to'qimachilik mahsuloti) juda arzondir. Bundan kelib chiqadiki, eksport mahsulotlarimizning so'nggi narxlarida transport xarajatlarining foiz ulushi yuqori va bu logistika samaradorligi iqtisodiyotimizda rivojlangan davlatlarga taqqoslaganda muhimroq ekanligini anglatadi. Mamlakat iqtisodiyotining o'sishi hamda jahon bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash



maqsadida, O'zbekiston samarali logistika tizimini tashkil etishi lozim, bu esa o'z navbatida, eksport-import operatsiyalariga ketadigan xarajatlarning kamayishiga olib kelishi kerak. So'nggi yillarda, jumladan, tashqi savdo sohasida ham, O'zbekiston hukumati tomonidan faol tarzda iqtisodiy islohotlarning o'tkazilishi – logistika bo'yicha yuqori malakali mutaxassislariga bo'lgan talabning ortishiga sabab bo'lmoqda[1].

## II. ADABIYOTLAR SHARHI

«Logistika» atamasidan mashhur olimlar, foydalanuvchilar, sarkardalar o'z asarlarida foydalanganlar. Buyuk nemis matematigi G.V. Leybnis (1646 - 1716) bu atamadan «Xulosalarni hisoblash» yoki matematik mantiq ma'nosida foydalangan. XIX asrda bu atamadan kelib chiqishi shveysariyalik bo'lgan taniqli harbiy nazariyachi va tarixchi Antuan-Anri Jomnin (1779-1869) o'z asarlarida foydalangan. 1813 yildan boshlab u Rossiyada Aleksandr Iningshtabida ishlagan, 1826 yilda infanteriya generali unvonini olgan. Nikolay I ning harbiy maslahatchisi bo'lgan va Sankt-Peterburgdagi harbiy akademiyaning asoschilaridan biri bo'lgan (1828). Shahzoda Aleksandr Ining shaxsiy o'qituvchisi bo'lgan, haqiqatan ham uning uchun muallifning logistika bo'yicha eng muhim asari yozilgan va keyinchalik u ko'pgina tillarga tarjima qilingan. Ulogistika o'z ichiga rejalar tuzish, boshqarish, ta'minlash, qo'shnlarni joylashtirish joyini belgilash, armiyaga transport xizmatini ko'rsatish bilan bog'liq masalalarning keng doirasini oluvchi qo'shnlarni boshqarishning amaliy usullari haqida foydalangan. 1884 yilda Amerika harbiy-dengiz floti instituti kemachilik zarurlari uchun «logistika» tushunchasini kiritgan. 1904 yilda Jenev

adaltelson, Lalandva Kutuyurlarning taklifi bo'yicha falsada kongress logistika matematik mantiq sifatida belgilagan. Logistika tamoyillari Ikkinchi Jahon urushi davrida Amerika armiyasida moddiy-texnika ta'minoti hamda qurol-yarog', oziq-ovqat, transportni yetkazib beruvchilar va qo'shinlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni tashkil qilish sohasida keng rivojlangan. Taktika, strategiya va razvedka bilan bir qatorda «Logistika» atamasidan fuqarolik korxonalarining ta'minot-sotish faoliyatini belgilanishi mumkin. Harbiy sanoat, front orqasi va front ta'minot bazalari va transportning aniq o'zaro hamkorligi Amerika armiyasiga qurol-yarog', yonilg'ich, moylash materiallariva oziq-ovqatlarni kerakli miqdorlarda yetkazib berishni o'z vaqtida va muntazam ta'minlashga imkon bergan.

Asta-sekin logistika va logistik boshqaruv tushunchasi turli-tuman mazmunlar bilan to'ldirilgan ishlab chiqarish va tovar muomalasining har xil sohalariga kirib boradi. Bunga hisoblashning eng yangi usullari, zamonaviy hisoblash, axborot texnika va texnologiyasining keng qo'llanilishi hamda ishlab chiqarish infratuzilmasi elementlari va xo'jalik yuritish intensiv usullarining o'zaro hamkorlikda rivojlanishi ta'sir qilgan[2].

XX asr oxirida logistika faniga xarid qilish (ta'minlash), ishlab chiqarish, sotish (taqsimlash), transport, axborot logistikasini oluvchi fanga aylangan. Inson faoliyatining sanab o'tilgan sohalariga yetarlicha o'rganilgan va tegishli adabiyotlarda bayon qilingan. Logistik yondashishning yangiligi esa sanab o'tilganlar va faoliyatning boshqa sohalarini istalgan natijaga oqimlarni muvofiq to'g'ri boshqarish yo'li bilan vaqt va resurslarning eng kam harajatlari yordamida erishish maqsadida integratsiyalashdan iboratdir. Shunday qilib, logistika avvalo,



iste'molchilarga, ularning so'rovlarini ko'proq qanoatlantirishga harakat qilgan holda ishlaydi.

### III. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada logistika sohasining rivojlanish istiqbollari hamda sohalar bo'yicha tahliliy metodlardan foydalanilgan.

### IV. TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Logistika sohisi bugungi kunga dunyo miqyosida ravnaq topib rivojlanmoqda. Xususan, oily ta'lim muassasalarida ham "Biznes boshqaruvi va Logistika" ni o'qitish tarmoqlari yo'lga qo'yilib, yosh kadrlarni tayyorlash ishlari amalga oshirilmoqda.

Transport sohasidagi eng muhim islohotlardan biri davlat monopoliyasini va cheklovlarni bosqichma-bosqich qisqartirib boorish.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi eksperti Muhsinjon Xolmuxamedov "Transport sohasidagi eng muhim islohotlardan biri transport xizmatlari bozorini erkinlashtirish, davlat monopoliyasini va cheklovlarni bosqichma-bosqich qisqartirib borish", ekanligini ta'kidlamogda.

Logistika maqsadi va vazifalari Logistikaning asosiy maqsadi oqilona logistika tizimini yaratish orqali transport, saqlash va tarqatish operatsiyalari uchun minimal xarajatlar bilan material oqimlarining maksimal samaradorligiga erishishdir. Ushbu maqsadga muvofiq biz asosiy va xususiy ajrata olamiz logistika vazifalari. Logistikaning asosiy vazifalari moddiy oqimlarni tartibga solishni tashkil qilish bilan bog'liq va boshqaruv faoliyati aspektlariga qisqartirilgan. Logistikaning alohida vazifalari

ushbu sohadagi aniq harakatlar bilan bog'liq[4]. Iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini rag'batlantirishda xorijiy tajribani o'rganish shuni ko'rsatadiki, mamlakatlar o'z taraqqiyotining turli bosqichlarida investitsiyalar yo'naltirilgan va turli imtiyozlar berilgan muayyan ustuvor tarmoqlarni tanlashga tayanadilar.

Iqtisodiy diversifikatsiya asosida O'zbekiston Respublikasining barqaror va muvozanatli iqtisodiy o'sishini ta'minlash va ichki moliyaviy resurslari cheklangan sharoitda uning raqobatbardoshligini oshirish vazifasini investitsiyalarni jalb etish va mavjud mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha rag'batlantiruvchi siyosatni amalga oshirmasdan turib erishib bo'lmaydi.

#### **Investitsiyalar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi:**


- makro darajada ular kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni tarkibiy jihatdan muvofiqlashtirish va iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini barqaror rivojlanishini ta'minlash, innovatsion siyosatni amalga oshirish iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini ta'minlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

- mikro darajada esa ishlab chiqarishni kengaytirish va rivojlantirish, uning texnik va texnologik jihatdan takomillashtirish, asosiy vositalarning ma'naviy va jismoniy eskirib borishiga yo'l qo'ymaslik hamda atrof-muhitga zararli ekologik ta'sirini kamaytirishni ta'minlaydi.

Iqtisodiy omilga nazar soladigan bo'lsak, hozirgi vaqtda ishlab chiqarish xarajatlari va taqsimlash xarajatlarini kamaytirish, ham kompaniyaning foydasini oshirish, ham iste'molchining manfaatlarini to'la qondirish, unga turli xil xizmatlarni ko'rsatish imkoniyatlarini izlash birinchi o'ringa chiqmoqda. Shunday qilib, agar bozor

munosabatlari rivojlanishi sharoitida "hisoblash-foyda-iste'molchi" tamoyili diqqat markazida bo'lsa, logistika salohiyati bu

tamoyilning mujassamligini ta'minlaydi. Iqtisodiy samarani aniqlash uchun logistikada yuk aylanmasi darajasiga qarab baholanadi.



**1-rasm. Logistika tizimida yuk aylanmasi 100% lik ko'rsatgich bo'yicha.**

Asosan avtotransport logistikasi 88% ko'rsatgich bilan yuqori natija qayd etmoqda. So'nggi yillarda iqtisodiyotni erkinlashtirish va uni tashqi dunyoga ochish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar xorijiy va milliy investorlarning sarmoya kiritishi, yangi biznes yaratishi, qo'shimcha daromad olishi uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda[5].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqida O'zbekiston uchun barqaror iqtisodiy o'sishning eng muhim garovi - raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish, ular uchun yangi xalqaro bozorlar topish va eksportni ko'paytirish, tranzit salohiyatidan to'liq foydalanish borasida o'rinli va kechiktirib bo'lmaydigan muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Shu munosabat bilan BMT shafeligida Transport-kommunikatsiya aloqalarini rivojlantirish mintaqaviy markazini ochishni taklif qildi.

Biz transport-kommunikatsiya aloqalari to'g'risida gapirar ekanmiz, bu O'zbekiston

uchun juda muhim va o'ylantiradigan dolzarb masalalardan biri ekanini ta'kidlash joiz. Shu bois, O'zbekiston transport sanoatini rivojlantirishga strategik ahamiyat berib, milliy va mintaqaviy darajalarda transport infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda, shuningdek, uni xalqaro transport tizimiga qo'shish bo'yicha izchil ishlarni olib bormoqda. Xalqaro ekspertlarning xulosasiga ko'ra, infratuzilmani yaxshilash, moslashuvchan tariflar qo'llash va yangi istiqbolli yo'nalishlarni shakllantirish hisobidan, O'zbekistonda tranzit salohiyatini hozirgi 7 milliondan 16 million tonnaga yetkazish imkoniyatimiz mavjud. Ma'lumki, O'zbekistonning okeanga to'g'ridan-to'g'ri chiqishga imkoni yo'q va dunyoda bunday davlatlar soni 44 tani tashkil qiladi. Ammo ularning 42 tasi bir mamlakat chegarasidan o'tsa keyingisi okean. O'zbekiston esa buning uchun ikki mamlakat hududini bosib o'tishi lozim. Okeanga chiqish uchun esa eng yaqin yo'l bu Afg'oniston orqalidir. Shu ma'noda, bugungi kunda yaqin qo'shnimiz bilan har



tomonlarni aloqalarni rivojlantirish, bu zaminida tinchlik va barqarorlikning ta'minlanishidan O'zbekiston to'laqonli manfaatdordir.

E'tiborlisi, O'zbekiston sa'y-harakati bilan so'ngi uch yilda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida yaxshi qo'shnichilik, o'zaro ishonch, do'stlik va hurmat muhiti shakllandi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad mintaqamizning global iqtisodiy, transport va tranzit yo'laklariga chuqur integratsiyasini ta'minlashdir. Transport sohasidagi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish, respublikaning investitsiyaviy jozibadorligi va eksport salohiyatini oshirish, transport kommunikatsiyalarini strategik rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida davlat boshqaruv organi sifatida belgilangan Transport vazirligi tashkil etildi. Qolaversa, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan barcha turdagi transportlarning optimal va muvozanatlashgan o'zaro aloqasini nazarda tutuvchi yangi "Transport to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi ishlab chiqilmoqda[6]. Xususan, davlat mulki va yer uchastkalarini elektron auksionlar orqali, shu jumladan, nol qiymatda tadbirkorlik sub'yektlariga sotish bo'yicha bozor mexanizmlari joriy etildi;

-raqobat muhitini yaxshilash, biznes yuritish uchun teng sharoit yaratish va sog'lom raqobat muhitini yaxshilashni rag'batlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi;

-yoqilg'i-energetika resurslari, non, un va boshqa strategik tovarlar uchun erkin narxlarni joriy etish choralari ko'rildi;

-mamlakat bozorlarida sog'lom raqobatni cheklovchi yakka tartibdagi soliq va bojxona imtiyozlari hamda imtiyozlar berish amaliyoti bekor qilindi. Amaldagi mexanizm doirasida sanoat, faoliyat sohalari va hududlar

uchun umuman soliq va bojxona imtiyozlari va preferensiyalar beriladi;

-ichki bozorda sog'lom raqobatni cheklovchi yakka tartibdagi soliq va bojxona imtiyozlari hamda imtiyozlar berish amaliyoti bekor qilindi. Amaldagi mexanizm doirasida sanoat, sohalari va hududlar uchun soliq va bojxona imtiyozlari va preferensiyalar beriladi.

## **Transport sohasida investitsion muhitni oshirish bo'yicha islohotlar**

Transport sohasida investitsion jozibadorlikni oshirish, investorlar safini kengaytirish, xorijiy hamkorlar bilan o'zaro manfaatdor hamkorlikni amalga oshirishda ham muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, logistika samaradorligi indeksi (LPI) ni o'z ichiga olgan jahon banki tomonidan yuritilayotgan logistika samaradorligi indeksi bo'yicha O'zbekiston 99-o'rinni egalladi. Hisobotda 168 mamlakat o'rin olgan bo'lib, mazkur indeks mahalliy kompaniyalarning milliy va xalqaro bozorlarga chiqishni ta'minlovchi ta'minot zanjirlarining samaradorligini o'lchaydi. LPI shuningdek, ta'minot zanjirlarining barqarorligi, atrof-muhitga ta'siri va malakali ishchilarga bo'lgan ehtiyoj kabi rivojlanayotgan masalalarga ham e'tibor qaratadi. Indeksni tarkibiy qismlari bo'yicha ko'rib chiqadigan bo'lsak, O'zbekiston bojxona tartiblari bo'yicha 140, infratuzilma bo'yicha 77, xalqaro yuklar bo'yicha esa 120-o'rinni egallagan. Logistika sifati bo'yicha 88-o'rin, tovarlarni kuzatib borish imkoniyatlari bo'yicha 90-o'rin, yetkazib berish muddatlari bo'yicha esa 91-o'rinni egallagan.

Hozirgi kunda jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv yo'lidagi to'siqlarni olib tashlash bo'yicha faol va keskin choralar ko'rilmogda. Xalqaro maydonda mamlakat imidjini yaxshilash savdo, iqtisodiyot, investitsiya va ijtimoiy rivojlanish modellarini ishlab chiqish, yetakchi xalqaro tahliliy va



ilmiy-tadqiqot institutlari, shuningdek, jahondagi biznes uyushmalar bilan aloqalarni mustahkamlashning dolzarb masalalaridan biridir.

Transport sohasida investitsiyalarni keng jalb qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan tashabbuslar:

Transport sohasidagi eng muhim islohotlardan biri transport xizmatlari bozorini erkinlashtirish, davlat monopoliyasini va cheklovlarni bosqichma-bosqich qisqartirib borish, xorijiy investorlarga qulay shartlarda davlat va xususiy sheriklik tamoyillari asosida yirik ob'yektlarni taqdim etish kabi yo'nalishlarda katta hajmdagi ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2020 yil 1 avgustdan xorijiy aviakompaniyalarga viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasi xalqaro aeroportlarida beshinchi darajadagi "havo erkinligi", "Navoiy" va "Termiz" xalqaro aeroportlarida esa yuk tashuvchi aviakorxonalar uchun yettinchi darajadagi "havo erkinligi"ni taqdim etuvchi "Ochiq osmon" rejimi joriy etilishi potensial investorlarning yurtimizdagi havo tashuvlari bozoriga kirib kelishiga zamin yaratmoqda.

Transport sohasida xalqaro savdo operatsiyalarini tezlashtirish uchun chora-tadbirlar tashabbuslari ishlab chiqildi. Eksport va import operatsiyalari uchun "yagona darcha" tamoyili asosida ishlaydigan milliy onlayn portali ishga tushirildi. Bunda istalgan mijoz elektron so'rovnomma yuborish orqali barcha turdagi ruxsatnomalar, tovar kelib chiqishi sertifikatlari va fitosanitariya sertifikatlarini olish uchun to'lov qilish imkoniga ega bo'ladi. Ushbu yangi mexanizmlarni joriy etish bilan eksport hujjatlarini qayta ishlash uchun umumiy vaqt 174 soatdan 96 soatgacha qisqartirildi.

**Transport tizimidagi investitsion loyihalarning amalga oshirilishi**

Pandemiya sharoitida investitsion loyihalarning amalga oshirilishiga jiddiy to'siqlar va xavf solganiga qaramasdan joriy yilning yanvar-iyun oylarida rejalashtirilgan loyihalar bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan 2020 yil yanvar-iyun oylari yakunlari bo'yicha quyidagi loyihalar bo'yicha qurilish-montaj ishlari yakunlandi. Toshkent metropoliteni Yunusobod liniyasining 2 - bosqichi qurib bitkazildi (2,9 km.). Toshkent shahrida yer usti halqa metropolitenini 1-bosqichi (11,4 km.) qurib bitkazildi. Bugungi kunda respublika komissiyasi tomonidan aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilmoqda. Andijon-Savay-Xonobod temir yo'l uchastkasi modernizatsiya ishlari tugatildi (65 km.). Mazkur loyihalarni ishga tushirish (foydalanishga topshirish) mamlakatdagi karantin choralari bekor qilingandan so'ng amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, transport tizimidagi sohalar kesimida olib borilgan o'rganishlar natijasida investitsion dasturlarda belgilangan loyihalarning ijrosi natijalari quyidagicha:

Avtomobil yo'llari qo'mitasi bo'yicha davlat byudjeti hisobidan 99 ta investitsiya loyihasi bo'yicha rejaga nisbatan 131 foiz ishlar amalga oshirilgan.

Davlat kafolati ostidagi xorijiy moliya tashkilotlari tomonidan moliyalashtiriladigan 5 ta investitsiya loyihalari doirasida mablag'lar rejaga nisbatan 104 foiz o'zlashtirilgan.

"O'zbekiston temir yo'llari" AJ bo'yicha investitsiyalarni o'zlashtirish rejasi rejaga nisbatan 121 foizga amalga oshirilgan[7].

"Uzbekistan airports" AJ tizimi bo'yicha 2 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Bular umumiy qiymati 21,1 mln. dollarlik "Termiz xalqaro aeroportining yangi sun'iy uchish-qo'nish yo'lagi va boshqa aerodrom qoplamalari qurilishi" hamda umumiy qiymati 62,0 mln. dollarlik "Samarqand xalqaro aeroportining



qurilishi” loyihalari. Samarqand aeroportida 62 mln. dollarlik rekonstruksiya ishlari bajarilmoqda. Qayta qurish ishlari yakunlanganidan so‘ng aeroportning o‘tkazish qobiliyati soatiga 600 dan 1200 yo‘lovchiga oshishi mumkin. Hozirda 22 ta samolyot uchun to‘xtash va uchish-qo‘nish yo‘lagi qurilishi ham yakunlanmoqda. Davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalar Transport vazirligi tomonidan Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi bilan birgalikda transport va yo‘l xo‘jaligi sohasida davlat-xususiy sheriklik asosida 10 ta loyihalarni amalga oshirilmoqda.

### **Avtomobil transporti sohasida:**

Respublika viloyatlaridagi davlat ulushi bo‘lgan jami 13 ta avtostansiyalardan birinchi bosqichda 9 tasini hamda 7 ta (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Xorazm, Namangan xamda Toshkent viloyatlaridagi) avtotransport korxonalarini davlat-xususiy sherikchilik asosida tadbirkorlarga berish. Transport tizimida yaqin kelajakda amalga oshirilishi rejalashtirilgan islohotlar va Transport tizimi korxonalarida islohotlarni davom ettirish va ularda zamonaviy korporativ boshqaruv mexanizmlarini joriy etish choralari ko‘rilmoqda. Jumladan:

Fuqaro aviatsiyasi sohasida O‘zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasini rivojlantirish va raqobat muhitini yaratish maqsadida, «Humo Air» yangi aviakompaniyasini xorijiy ekspertlarni jalb etgan holda “Humo Air” aviakompaniyasini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va yil yakuniga qadar faoliyatini boshlab yuborish;

Jahon banki bilan birgalikda aviatsiya sohasini institutsional va normativ jihatdan isloh qilish hamda “Uzbekistan airways” jamiyatini rivojlantirish bo‘yicha “Biznes modeli”ni ishlab chiqish;

Xalqaro moliya korporatsiyasi tomonidan aeroportlarni davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish va boshqaruvga berish konsepsiyasi tayyorlash;

“Airport Research Center” kompaniyasi (Germaniya) tomonidan aeroportlarning qisqa va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi tayyorlash.

Shuningdek, Rossiyaning yetakchi aviakompaniyalari bilan hamkorlikda O‘zbekiston fuqaro aviatsiyasi bozorida yangi “lowkoster” aviakompaniyasini tashkil etish muzokaralari olib borilmoqda.

Oxirgi yillarda transport sohasida davlat monopoliyasini qisqartirish, soha va korxonalarda zamonaviy korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy qilish, davlat-xususiy sheriklar, raqamlashtirish, tashqi savdoni kengaytirishda yangi tashabbuslarni qo‘llash, xalqaro transport logistika tizimlariga a‘zolikni kengaytirib borish kabi maqsadli yo‘nalishlar bo‘yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

### **V. XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda transport sohasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar va investitsion dasturlarning amaliy samarasini yaqin davr ichida iqtisodiyotning barcha sohalariga hamda aholining barcha qatlamlariga sifatli va raqobatbardosh sharoitlardagi logistika va tashuv xizmatlarining taqdim etilishi hamda bu sohaning mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatini keskin oshirishga katta hissasini qo‘sha olishini ko‘rishimiz mumkin. Buning yordamida korxonalar logistikaning asosi bo‘lgan oqilona yondashuvga asoslangan logistika operatsiyalari uchun minimal xarajatlar bilan oqimlarning maksimal samaradorligiga erishadi. Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan



transport-logistika sohasi Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan konstruktiv va o'zaro manfaatli munosabatlarni shakllantirish, shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb

qilish va uning jozibadorligini oshirish uchun sifatli, qulay va arzon transport tizimini yaratish bugungi globallashayotgan dunyoda alohida dolzarblik kasb etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <http://uz.infocom.uz/2018/05/04/ozbekistonlik-mutaxassislar-logistika-sohasidagi-songgi-yangiliklar-bilan-tanishdilar/>.
2. Dadaboyev Q.A., Logistika.O'quvqo'llanma.: -T.: TDIU. 2007-24-26b.
3. [www.Gazeta.uz](http://www.Gazeta.uz)
4. <https://delovyelyudi.ru/uz/kostyummy/logistika-sushchnost-zadachi-funkcii-vvedenie-logistika/>
5. <http://Review.uz/>
6. <https://xs.uz/uz/post/transport-logistika-sohasida-muhim-tashabbus>
7. <https://delovyelyudi.ru/uz/kostyummy/logistika-sushchnost-zadachi-funkcii-vvedenie-logistika/>.<http://Review.uz/>